
KUNDUZGI OROMGOHLARDA BOLALARNING BO'SH VAQTI MAZMUNLI O'TMOQDA

Bolalar orziqib kutgan yozgi ta'til kunlari ham boshlandi. Shu kunlarda maktablar va boshqa o'quv muassasalari qoshida tashkil etilgan kunduzgi oromgohlar o'g'il-qizlar ixtiyorida bo'lib, maroqli xordiq chiqarmoqdalar.

Toshloq tumanidagi umumta'lim maktablarida tashkil etilgan kunduzgi oromgohlarda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy kechalar, sport musobaqalari o'tkazilmoqda.

Bugun tuman prokurori Sh. Musayev hamda maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i A.Solievlar tumanimizdagi 11-,13- maktablar qoshida tashkil etilgan kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohlarida bo'lib, yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Bolajonlarga kitoblar sovg'a qilishdi hamda tegishli tartibda bolalarni xavfsizligi yuzasidan ko'rsatmalar berdilar.

2023-06-02 18:36:32